



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
мухандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридиневич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Diloram Babajanova</b> O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG‘RIKENGLIKNI TA‘MINLASHGA DOIR DAVLAT SIYOSATI.....	5
<b>2. Ойбек Абдимўминов</b> БМТ ИСЛОҲОТЛАРИ: СИЁСИЙ ҚАРАШЛАР, НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА АМАЛИЙ ТАШАББУСЛАР.....	11
<b>3. Sarvar Axmedov</b> XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI.....	18
<b>4. Nafosat Botirova</b> ANTIK DAVR O‘RTA OSIYO XALQLARI JANG OLIB BORISH USLUBLARI.....	23
<b>5. Дмитрий Епифанов</b> АНАЛИЗ ДЕНЕЖНОЙ И НАЛОГОВОЙ РЕФОРМ БУХАРСКОГО ПРАВИТЕЛЯ АБДУЛЛА-ХАНА II ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ХАНСТВА.....	28
<b>6. Istora Jo‘rayeva</b> O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK QIYOFASI.....	31
<b>7. Xamdani Matyakubov</b> TOSH DAVRIDA XO‘JALIK SOHASI, MADANIYAT VA IJTIMOIIY ALOQALAR (XORAZM VOHASI MISOLIDA).....	35
<b>8. Sahodat Murtazova, Otabek Ziyodov</b> O‘ZBEK ESTRADA SAN‘ATINING SHAKLLANISHI VA UNING ATOQLI VAKILLARI FAOLIYATI TARIXIDAN.....	43
<b>9. Sevara Pulatova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA RASSOMLAR FAOLIYATINI SAFARBAR ETISH JARAYONLARI.....	48
<b>10. Yoqubjon Tayronov</b> TURKISTONDA MAHALLIIY BOYLARNING METSENATLIK FAOLIYATLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR (Milliy matbuot materiallari asosida).....	53
<b>11. Dildora Tursunova</b> HUNARMANDCHILIK ASOSIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA‘MINLASH.....	59
<b>12. Солижон Қудратов</b> СИРДАРЁ ҲАВЗАЛАРИДА ДАВЛАТЧИЛИК ТИЗИМИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ.....	63




UDK: 94(575.1)

**Sarvar Tulkinovich Axmedov,**  
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti  
sardorahmedov437@gmail.com

## XX ASRNING 60-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONNING ILM-FAN SOHASIDAGI HAMKORLIK ALOQALARI

**For citation:** Sarvar T. Akhmedov. COOPERATION RELATIONS IN THE FIELD OF SCIENCE OF UZBEKISTAN IN THE 60-80S OF THE 20TH CENTURY. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 2, pp.18-22

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14978638>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada, 1960-1980 yillarda respublika ilmiy markazlari va mutaxassislarining o‘zaro aloqalari, jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan olib borilgan hamkorliklar, shu jumladan, O‘zbekistonning ilmiy xodimlarining xalqaro konferensiya va simpoziumlarda ishtirok etishi, ilmiy izlanishlar natijalarini jahon miqyosida namoyish qilishdagi roli haqida so‘z yuritiladi. O‘zbekistonning texnika, tabiatshunoslik, tibbiyot, tarix va madaniyat kabi sohalarda o‘z ilmiy salohiyatini oshirish, yangi innovatsiyalarni tatbiq etish va ilm-fan sohasidagi global tarmoqlarga integratsiyasi ham maqolada yoritilgan. Ushbu davrda amalga oshirilgan ilmiy-texnikaviy hamkorliklar mamlakatning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, O‘zbekiston ilm-fanining dunyo miqyosidagi tan olinishi va yangi yutuqlarni erishishida muhim omil bo‘lgan. Maqola, shuningdek, o‘sha davrda ilm-fanning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga qo‘shgan hissasini ham tahlil etadi.

**Kalit so‘zlar:** Fanlar akademiyasi, xalqaro ilm-fan aloqalari, o‘zbek olimlari, xalqaro simpoziumlar, xalqaro konferensiyalar, fizika-texnika instituti.

---

**Сарвар Тулкинович Ахмедов,**  
Базовый докторант Каршинского  
государственного университета  
sardorahmedov437@gmail.com

## СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА В ОБЛАСТИ НАУКИ В 60-80 ГОДЫ XX ВЕКА

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о взаимодействии республиканских научных центров и специалистов в 1960-1980-е годы, сотрудничестве с ведущими научно-образовательными учреждениями мира, в том числе об участии научных работников Узбекистана в международных конференциях и симпозиумах, о роли Узбекистана в демонстрации результатов научных исследований в мировом масштабе. В статье также освещается

наращивание научного потенциала Узбекистана в таких областях, как техника, естественные науки, медицина, история и культура, внедрение новых инноваций и интеграция в глобальные отрасли науки. Научно-техническое сотрудничество, осуществленное в этот период, оказало существенное влияние на развитие страны и стало важным фактором мирового признания и достижения новых достижений узбекской науки. В статье также анализируется вклад науки в социальное и экономическое развитие в тот период.

**Ключевые слова:** академия наук, международные научные связи, узбекские ученые, международные симпозиумы, международные конференции, физико-технический институт.

**Sarvar T. Akhmedov,**  
Karshi State University, PhD student  
sardorahmedov437@gmail.com

## COOPERATION RELATIONS IN THE FIELD OF SCIENCE OF UZBEKISTAN IN THE 60-80S OF THE 20TH CENTURY

### ABSTRACT

This article discusses the interaction of scientific centers and specialists of the republic in the 1960s-1980s, cooperation with leading scientific and educational institutions of the world, including the participation of Uzbek scientists in international conferences and symposia, and the role of Uzbekistan in demonstrating the results of scientific research on a global scale. The article also discusses Uzbekistan's efforts to increase its scientific potential in such areas as technology, natural sciences, medicine, history and culture, the implementation of new innovations, and its integration into global networks in the field of science. The scientific and technical cooperation carried out during this period had a significant impact on the development of the country and was an important factor in the global recognition of Uzbek science and the achievement of new achievements. The article also analyzes the contribution of science to social and economic development during that period.

**Index Terms:** Academy of Sciences, international scientific relations, Uzbek scientists, international symposia, international conferences, Institute of Physics and Technology.

### 1. Dolzarbligi:

Ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida xalqaro hamkorlik har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekistonning ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalari XX asrning 60–80-yillarida jadal rivojlangan bo'lib, bu jarayonda O'zbekiston Fanlar akademiyasi muhim o'rin tutdi.

### 2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida, tadqiqot metodologiyasi sifatida birinchi navbatda tarixiylik, xolislik, uzviylik, ketma-ketlik va qiyosiy taqqoslash kabi metodologiyadan foydalanilgan holda, ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalar nazar tashlandi. Ilmiy maqolani tayyorlashda tarixchi olimlar Ch. A. Abutalipov, H Shukurova, H. Ziyayevlarning asarlaridan va boshqa sovet davri olimlarining tadqiqotlaridan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Markaziy arxivining R-2415-fond, R-1-fondlarida saqlanayotgan manbalaridan va boshqa adabiyotlardan foydalanilgan.

### 3. Tadqiqot natijalari:

To'plangan faktik materiallar shuni ko'rsatadiki, ikkinchi jahon urushidan keyin, ayniqsa XX asrning 60 yillari davomida ilm-fan sohasida O'zbekiston dunyoning 86 ta davlati, shu jumladan Osiyo va Afrikaning 53 ta davlatlari bilan ilmiy aloqalar olib bordi. Masalan, 1953-yilda O'zbekiston 5 davlat bilan xalqaro aloqalar olib bordi. Jumladan, O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy delegatsiyalar soni 1956-yilda 124 nafarni tashkil etgan bo'lsa, 1962-yilda xorijiy delegatsiyalar soni 399 nafarni tashkil etdi. 1962-yilda esa O'zbekistonga 98 ta davlatdan 2161 nafar xorijiy delegatsiya tashrif buyurdi. Xorijiy delegatsiyalar va sayyohlik tarkibida 20 mingdan ortiq kishi bo'lgan [1].

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ilmiy tadqiqotlar va fan sohasidagi xalqaro hamkorlik yildan-yilga rivojlanib bordi. Masalan, 1959-yilda O'zbekistonga 13 ta davlatdan 20 nafar olim tashrif buyurgan bo'lsa, 1968-yilda 40 davlatdan 60 dan ortiq tadqiqotchilar keldi. Bu hodisa O'zbekiston ilm-fani xalqaro miqyosdagi nufuzining ortib borganligidan dalolat berdi [2].

1962-yil O'zbekistonning 14 nafar taniqli olimlari xalqaro ilmiy konferensiya va simpoziumlarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etgani mamlakat ilmiy jamoatchiligining xalqaro maydondagi faolligini ko'rsatadi. Jumladan, akademik S. V. Starodubsev qattiq jismlardagi buzilish masalalariga bag'ishlangan ma'ruzasi bilan Venetsiyada o'tkazilgan Xalqaro simpoziumda ishtirok etgan bo'lsa, akademik A. P. Ibrohimov nurlanishlarning ta'siriga doir ilmiy tadqiqotlari bilan Angliyada o'tkazilgan Xalqaro kongressda ishtirok etdi [3].

Shuningdek, aniq fanlar yo'nalishidagi muhim o'zgarishlardan biri, 1962-yil avgust oyi Toshkentda bo'lib o'tgan gidrologlar jahon forumining o'tkazilganligidir. Bu forumda dunyodagi 6 ta qit'aning 24 mamlakati – Fransiya, Italiya, Pokiston, AQSH, Avstraliya, Chili, Niderlandiya, BAR, Hindiston, Suriya, Vengriya, Eron, Braziliya, Livan, Isroil, Turkiya, Afg'oniston, Gretsiya, Tunis, Angliya, Avstriya, Jazoir, Kipr davlatlaridan olimlar ishtirok etdi. Mazkur xalqaro forumda 51 ta ma'ruza tinglanib, shundan 37 tasi o'zbek olimlarining, shu jumladan, 20 tasi mahalliy olimlarning ma'ruzalari bo'ldi [4].

Shuningdek, Chexoslovakiyalik kibernetik olimlarining tajribasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari uchun axborot hisoblash tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida, ayniqsa, Avtomatlashtirilgan Boshqaruv Sistemalarini (ABS) yaratishda Chexoslovakiyaning kibernetika sohasidagi ilmiy yutuqlari va amaliy tajribalari qo'llanilgan. Bu hamkorlik axborot texnologiyalari va kompyuter tizimlarini rivojlantirishda muhim qadam bo'lib, o'z vaqtida O'zbekistondagi ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Chexoslovakiyalik olimlar bilan olib borilgan tadqiqotlar, yangi tizimlar va algoritmlarni joriy qilishda O'zbekistonga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkonini bergan va bugungi kunda mamlakatdagi axborot infratuzilmasi rivojida muhim ahamiyat kasb etdi [5].

1966-yil "Arxitektura CHSSR" jurnalida pragalik arxitektor P. Shvaxaning maqolasi chop etildi. Ushbu maqolada Shvaxa Toshkentlik arxitektorlarning ishlari haqida o'z xotiralari va taassurotlari bilan bo'lishdi. Maqolada, Chexoslovakiya va O'zbekiston arxitekturasini solishtirgan holda, Shvaxa Toshkentdagi arxitektorlarning ijodiy ishi va ularning me'morlikdagi erishgan yutuqlariga yuqori baho bergan. Uning fikricha, Toshkentdagi arxitektorlar zamonaviy me'morlik g'oyalari va amaliyotini chex arxitekturasini bilan o'zlashtirishga muvaffaq bo'lgan, bu esa ikki davlat o'rtasidagi ilmiy va ijodiy hamkorlikni kuchaytirishga olib kelgan. Shvaxa, shuningdek, xalqaro arxitektura aloqalarining rivojlanishi va bundan kelib chiqib, Toshkentning me'morchilik taraqqiyotida muvaffaqiyatlardan so'zlagan. Uning baho va taassurotlari Toshkentdagi me'morchilik sohasidagi xalqaro aloqalarning ahamiyatini yanada mustahkamlagan [6].

Bu davrda ilm-fan sohasida, ayniqsa, aniq fanlar yo'nalishida xalqaro aloqalar samarali bo'ldi. Masalan, 1971-yil 18-21 may kunlari AQShning Atlantika Sitida tashkil etilgan bahorgi Birlashgan konferensiya ishida ishtirok etish maqsadida o'zbekistonlik olimlardan B. G. Tamm, YU I. Torgov, I. V. Prangishvili va Y.M. Bayakovskiyalar Amerika axborot qayta ishlash federatsiyasi tomonidan tashkil etilgan hisoblash texnikasi bo'yicha AQSH davlatiga ilmiy safarda bo'ldi. Konferensiya Amerika axborotni qayta ishlash jamiyatlari federatsiyasiga (AFIPS) kiruvchi 12 ta jamiyat hamkorligida o'tkazildi. Ushbu konferensiya 3 kun davomida o'tkazilib, 38 ta uchrashuvda keng qamrovli ilmiy-texnikaviy va amaliy masalalar muhokama qilindi. Ko'rgazmada 188 ta firma va tashkilot o'z mahsulotlari va ishlanmalarini namoyish etdi. Taqqoslaydigan bo'lsak, 1970-yilda kuz oyida bo'lgan ko'rgazmada 300 ta eksponat qatnashdi [7].

O'zbekiston Fanlar akademiyasida ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida xalqaro simpoziumlar, konferensiyalar va seminarlar tashkil etilgan. Masalan, 1976-1982 yillarda akademiya institutlarining bazasida 45 ta xalqaro va Butunittifoq kongresslar, konferensiyalar va kengashlar o'tkazilib, ularda 1200 dan ortiq xorijiy olimlar va mutaxassislar ishtirok etdi. 1983-yilda bunday yig'ilishlarning soni 10 tadan oshdi [9]. Mazkur

tashkil etilgan konferensiyalarda o'zbek olimlari faol ishtirok etdi. Jumladan, 1977 yil sentabr oyida, o'zbek olimi T. Arifov GDR (Germaniya Demokratik Respublikasi) poytaxtida o'tkazilgan ionlangan gazlardagi hodisalar bo'yicha Xalqaro konferensiyasida ishtirok etdi. Konferensiya 12–17 sentabr kunlari bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda T. Arifov yangi ilmiy tadqiqotlar va axborotlar bilan tanishib, ionlangan gazlar bilan bog'liq ilmiy masalalarda o'z bilimlarini kengaytirdi. Shuningdek, konferensiya davomida u yangi ilmiy aloqalarni o'rnatish va xalqaro hamkorlik uchun imkoniyatlardan foydalandi [8].

1982-yil O'zbekiston va Ukraina Fanlar akademiyasining kibernetika institutlari o'rtasida ilmiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma asosida gibrid hisoblash tizimlarini ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlarni avtomatlashtirish uchun faol displeylarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib bordi.

Bundan tashqari 1982-yil O'zbekiston Fanlar akademiyasining G'arbiy Yevropa davlatlari ilmiy muassasalari bilan aloqalari ham rivojlandi. Masalan, astronomik vaqt va geografik koordinatalarni aniqlash bo'yicha uzoq muddatli qo'shma tadqiqotlar O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti Fransiya olimlari bilan xalqaro vaqt xizmatlari va Yaponiya olimlari bilan qutb harakati bo'yicha ilmiy xalqaro aloqalar olib bordi. Shuningdek, Seysmologiya instituti ilmiy tadqiqot jamiyati xususan Germaniyadagi Klaustal shahridagi Geofizika instituti bilan birgalikda yerning ichki qismining tuzilishi, xususiyatlari va yevolyutsiyasini o'rganish uchun ish olib bordi [9].

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, O'zbekiston Fanlar akademiyasi yadro fizikasi instituti tomonidan Ukraina Fanlar akademiyasining Xarkov fizika-texnika instituti uchun yuqori haroratli reaktiv eksperimental qurilma ishlab chiqishgan bo'lsa, 1982-yil Qirg'iziston, Tojikiston geolog olimlari va O'zbekiston Fanlar akademiyasining geologiya va geofizika instituti olimlari bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi [8].

Ilm-fan sohasidagi strategik hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibidagi Geologiya va Geofizika, shuningdek, Sharq qo'lyozmalari kabi ilmiy muassasalarning Afg'oniston Demokratik Respublikasi Fanlar akademiyasiga malakali kadrlar tayyorlashda ilmiy-metodik ko'mak ko'rsatishidir. Shuningdek, O'zbekistonning nazariy-fundamental tadqiqotlar darajasining izchil oshishi va Sharqiy Yevropa davlatlari Fanlar akademiyalari bilan mustahkam ilmiy aloqalar o'rnatilishi O'zbekistonning davlatlar ilmiy markazlari bilan ko'p qirrali hamkorligini rivojlantirishda ijobiy turtki bo'ldi.

1987-yilning 2-8 aprel kunlari Toshkentda, O'zbekiston Fanlar akademiyasining Termofizika kafedrasida xalqaro issiqlik va massa uzatish markazi (ICTM) yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ushbu muhim tadbirda, ko'plab nufuzli xalqaro olimlar ishtirok etdi. Jumladan, Fransiyadan Bordo shahridagi ilmiy tadqiqotlar markazining energiya va uzatish hodisalari laboratoriyasining mudiri, professor M. Kombaron, AQShdan Rensselaer Politexnika instituti Mexanika va Ayeronavtika fakulteti professori, A.E.Burless, Germaniyaning Shtutgart universiteti texnik termodinamika va issiqlik qurilmalari instituti professori K. Stefan kabi olimlar ishtirok etdi. Yig'ilishda, turli davlatlardan kelgan olimlar issiqlik va massa uzatish sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarni muhokama qilish, sohadagi yangi g'oyalar va metodikalarni almashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu uchrashuv xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va tadqiqotlar sohasidagi eng yangi yutuqlardan bahramand bo'lishga katta hissa qo'shdi [10].

Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, 1987-yil O'zbekiston Fanlar akademiyasi V. I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti ikki tomonlama ilmiy hamkorlik, adabiyotlar almashinuvi, xalqaro matematik jurnallardagi maqolalarni ko'rib chiqish, xorijiy davlatlarga xizmat safarlari va xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish orqali tegishli xorijiy muassasalar bilan hamkorlik olib bordi [11]. Shuningdek, 1987-yil mazkur institut 5 ta xorijiy tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik olib bordi. Jumladan, Rossiya Fanlar akademiyasi matematika instituti bilan "Ehtimollar nazariyasining chegara teoremlari, statistik mezonlar va ularning statistik qabul nazorati va ishonchlilik nazariyasi vazifalariga qo'llanilishi" mavzularida hamkorlik qildi.

1988-yilning 8-12 sentabr kunlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Fizika-texnika instituti bazasida Sobiq Ittifoqda birinchi marta o'tkazilgan "Ko'p zarrachalar dinamikasi" XVIII xalqaro

simpoziumi bo‘lib o‘tdi. Simpoziumda taqdim etilgan ma‘ruzalar ko‘p jarayonlar fizikasining eng dolzarb masalalarini muhokama qilishga bag‘ishlandi. Xususan, bir qator hisobotlarda dunyodagi eng kuchli tezlatgichlarda rekord energiyalarda olingan zarralar va yadrolarning o‘zaro ta‘siri haqidagi so‘nggi eksperimental ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan. Ro‘yxatda keltirilgan muammolarning nazariy jihatlariga bag‘ishlangan sharh hisobotlari yuqori energiyada zarralar va yadrolarning to‘qnashuvi nazariyasining rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va tendensiyalarini aniqlashga imkon berdi. Shuni ta‘kidlash kerakki, hisobotlarning aksariyat qismida ilmiy matbuotda yangi, asosan ilgari e‘lon qilinmagan ma‘lumotlar mavjud bo‘lgan [12].

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, ilm-fan sohasidagi xalqaro aloqalar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu hamkorlik turli mamlakatlarning olimlari va tadqiqotchilarini birlashtirgan holda, global muammolarga birgalikda yechim topish imkonini beradi. Xususan, ekologik muammolar, sog‘liqni saqlashdagi muammolar, energetika sohasidagi inqirozlar va texnologik rivojlanish masalalarini yechishda xalqaro ilmiy hamkorlikning roli katta. O‘zbekistonda faoliyat olib borgan olimlarning samarali sa‘yi harakatlari bilan ilm-fan sohasining barcha sohalarida katta siljishlar bo‘ldi. Shuningdek, xalqaro aloqalarning rivojlanishida, ilm-fan sohasida O‘zbekiston olimlari xorijiy davlatlar bilan samarali hamkorlik aloqalarini rivojlantirdi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Текущий архив Узбекского общества дружбы и культурных связей с зарубежными странами (в дальнейшем — ТА УЗОДКС), 1963 г., д. 11 (1. Current archive of the Uzbek Society for Friendship and Cultural Relations with Foreign Countries (hereinafter referred to as TA UZODKS), 1963, file 11).
2. Sovet maktabi, 1969. №1.–B.57.
3. Shukurova H. Sovet O‘zbekistonning xalqaro aloqalari. T., “O‘zbekistoni Surx”. 1964. - B.27.
4. Abutalipov Ch. A. O‘zbekistonning xalqaro aloqalari. T., “O‘zdavnashr”, 1984. –B.161.
5. O‘z. MA. R-2415-fond, 1-ro‘yxat, 19-ish, 46- varaq.
6. “Pravda Vostoka”, 1966 yil, 26 mart.
7. O‘z. FA. MA 1-fond, 1-ro‘yhat, 2638-ish, 2-varaq.
8. O‘z. FA. MA 1-fond, 1-ro‘yhat, 3978-ish, 61-varaq.
9. O‘z. FA. MA 1-fond, 1-ro‘yhat, 3591-ish, 22-varaq.
10. O‘z. FA. MA 1-fond, 1-ro‘yhat, 4473-ish, 4-varaq.
11. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar 1983. №. 11. – B.12.
12. Ziyayev H. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari (1960-1980 yillar). T.: “Fan”, 1986. –B.36

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 2

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадqiqот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000